

## AT «Aloqabank» aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi (09.02.2024 y.)

AT «Aloqabank» aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi **2024-yil 9-fevral kuni, soat 10:00** da masofadan turib elektron ovoz berish xizmati <http://evote.uz> orqali o'tkazildi.

Yig'ilishga bank Kuzatuv kengashi Raisi Sh.Shermatov raislik qildi. Yig'ilishda bank aksiyadorlari, Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a'zolari, Bosh bankning departament, boshqarma va bo'lim boshliqlari ishtirok etdi.

### Yig'ilishda quyidagi masalalar kun tartibiga qo'yildi:

1. AT «Aloqabank» aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
2. AT «Aloqabank» Ustaviga o'zgartirish kiritish to'g'risida.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar soni **6 271** ta, ularga tegishli bo'lgan jami ovoz beruvchi aksiyalar soni **9 833 141 874** donadan iborat.

Elektron ovoz berish xizmati <http://evote.uz> orqali ro'yxatdan o'tkazilgan ovoz beruvchi aksiyalar soni **8 890 506 516** tani tashkil etdi. Ro'yxatdan o'tkazilgan ovoz beruvchi aksiyalar jami ovoz beruvchi aksiyalarning **90,41** foizini tashkil etdi.

Umumiy yig'ilish o'tkazish uchun kворum mavjud deb hisoblandi.

Kun tartibiga qo'yilgan masalalar bo'yicha ovoz berish natijalari quyidagi jadvalda berilmoqda:

Kun tartibi	Yoqlash		Qarshi		Betaraflar		
	%	soni	%	soni	%	soni	
1	AT «Aloqabank» aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash	100,00	<b>8 890 506 516</b>	0	<b>0</b>	0	<b>0</b>
2	AT «Aloqabank» Ustaviga o'zgartirish kiritish to'g'risida	99,99999	<b>8 890 505 516</b>	0,00001	<b>1 000</b>	0	<b>0</b>
AT «Aloqabank» Ustaviga kiritilgan o'zgartirishlar matni							
ESKI TAHRIRI				YANGI TAHRIRI			
-				<b>6.33.60.</b> Bank Boshqaruvi Raisi va a'zolariga to'lanadigan haq va ularning eng yuqori miqdorini belgilash hamda bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, ularga o'zgartirish kiritish masalalarni ma'qullab, aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga kiritadi.			